

**Maktabdagi ingliz tili darslarida, erkin muloqat uslubini orgatuvchi
metodlardan keng foydalanish**

Yusuvaliyeva Maftunaxon Jahongir qizi

SamDCHTI 2-bosqich talabasi

Ilmiy raxbarlar: N.N. Zubaydova

SH.O. Mamayoqubova

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda ingliz tili fani o'quvchilarga 1-sinfдан 11-sinfgacha bo'lgan davrda o'rgatiladi va shu vaqt davomida o'qituvchilar tomonidan qanday o'qish, yozish, muloqot qilish va tinglab tushunish bo'limlaridan ta'lim beriladi. Ammo statistikalarga yuzlansak 100 foiz o'quvchidan atigi 30 foizi ingliz tilida erkin suhbatlashishi mumkin ammo qolgan 70 foiz maktab o'quvchisining so'zlashuvida juda ham ko'p muammolar kuzatilmoqda. Korsatilgan foizlar sonini oshirish uchun dars mobaynida o'qituvchilar o'z talabalariga qanday qilib samarali va qiziqarli metodikalar orqali ingliz tilida suhbatlashishni qisqa vaqt mobaynida yetarli darajada o'rgatishlarini o'z maqolam orqali yoritib beraman.*

***Kalit so'zlar:** Ingliz tili atmosferasi, taqlid, o'rganilgan narsadan darhol foydalanish, pantomima, qo'shimcha kurslar, mustaqil o'qish, kitoblar.*

***Аннотация.** В настоящее время английский язык преподается учащимся с 1 по 11 класс, и за это время учителя учат читать, писать, общаться и слушать. Но если посмотреть на статистику, то только 30% из 100% учеников свободно говорят по-английски, а вот остальные 70% школьников имеют множество проблем с речью. Чтобы увеличить количество указанных процентов, я в своей статье объясню, как учителя могут за короткий период времени научить своих учеников общаться на английском языке с помощью эффективных и интересных методов.*

***Ключевые слова:** английская атмосфера, подражание, немедленное использование изученного, пантомима, дополнительные курсы,*

самостоятельное обучение, книги.

Annotation. Currently, English is taught to students from 1st to 11th grade, and during this time, teachers teach how to read, write, communicate and listen. But if we look at the statistics, only 30% of 100% of students can speak English fluently, but the remaining 70% of schoolchildren have many problems in their speech. In order to increase the number of indicated percentages, I will explain in my article how teachers can teach their students how to communicate in English in a short period of time through effective and interesting methods.

Key words: English atmosphere, imitation, immediate use of what has been learned, pantomime, additional courses, independent study, books.

Ingliz tili atmosferasini yaratish tadqiqotining ikkita maqsadi bor o'qituvchilarning o'quv faoliyati davomida to'liq ingliz tilidan foydalanishga bo'lgan ishonchini o'rganish va yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish uchun ingliz tilini o'rgatishda to'liq ingliz tilidan foydalanishga ta'sir qilgan omillarni aniqlash. Ushbu tadqiqotda o'rnatilgan aralash usul ishlatilgan. Miqdoriy ma'lumotlar Indoneziyaning Janubiy Sumatera provinsiyasi poytaxti Palembang shahridagi boshlang'ich maktablarda ingliz tilidan dars beradigan 38 nafar ingliz tili o'qituvchilariga 1 ta yopiq javobli so'rovnomani tarqatish orqali to'plangan. Shu bilan birga, sifatli ma'lumotlar intervyu olishga tayyor bo'lgan 15 nafar ingliz tili o'qituvchilari bilan birma-bir chuqurlashtirilgan suhbatlar natijasida to'plangan. Talabalarning har bir so'rovnomaga bergan javoblari SPSS dasturi bo'yicha tavsiflovchi statistik tahlil yordamida tahlil qilindi. Shu bilan birga, suhbatdan olingan sifatli ma'lumotlar tematik tahlil yordamida tahlil qilindi. Yosh o'quvchilarga aralash usulda tadqiqot o'tkazish orqali to'liq ingliz tilidan foydalanish tadqiqotning yangiligi bo'ldi. Tadqiqotdan ma'lum bo'lishicha, birinchi navbatda o'qituvchilar sinfda ingliz tilini o'rgatishda to'liq ingliz tilidan foydalanish haqida ijobiy fikrda bo'lishadi.

Ikkinchidan, o'quv faoliyati davomida to'liq ingliz tilidan foydalanishga ta'sir qiluvchi besh omil mavjud; 1) O'qituvchilarning ingliz tilini bilish darajasi; 2)

Maktab siyosati; 3) Talabalarning til o'rganish darajasining bir xilligi 4) O'qituvchining sinfni boshqarish qobiliyati va 5) Talabalarning ingliz tiliga munosabati.

Taqlid-ko'p insonlar ingliz tili o'rganish haqida o'ylaganida ko'p kitoblar, qiyin va uzun lug'atlarni yodlash, gramatikani boshidan oxirigacha mukammal o'rganib chiqish kerak deb tushunishadi. Bular albatta o'ziga xos tarzda foydalidir va ularni e'tiborsiz qoldirmaslik kerak ammo ular o'ylaganchalik qiyin ham emas. Biroq ko'p odamlar o'rganishning faol tomonini - tinglashni va eshitgan narsasini takrorlashni unutishadi yoki undan qochishadi. Ko'p tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki , taqlid til ko'nikmalarini yaxshilashning eng yaxshi usullaridan biridir. Insonlarning so'zlarini tinglash va ular buni qanday aytishlarini takrorlash-hatto intonatsiya,hissiyot va so'zlarini tanlash - taraqqiyotning eng kuchli va qiziqarli usullaridan biridir. Shu sabablardan kelib chiqqan holda barcha o'qituvchilar o'z o'quvchilarga so'zlarni takrorlash(imitation-taqliq qilmoq)orqali ularning so'zlashish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin.

O'rganilgan narsadan darhol foydalanish - ko'p o'quvchilar xotira zaifligi sababli inglizcha so'zlarni yodlashga qiynaladi va ularning o'rganyotgan tiliga nafrat oshishiga sabab boladi. Ammo bu muammoga ham bir yechim bor:

O'qituvchilar o'z o'quvchilariga dars mobaynida yangi uchragan so'zni baland ovozda kamida 3 marotaba takrorlattirishi kerak yani qog'ozga qaramasdan ayta olmaganigacha. Undan so'ng esa har bir o'quvchi yangi so'zdan foydalanib uchta jumla yozadi. Natijada albatta u so'zni boshqa holatlarda ham bemalol ishlataoladi.

Pantomima usuli - bu ingliz tilida o'ylash qobiliyatini oshirib beradi va bu usuldan kop holatda o'qituvchilar o'quvchilar uchun foydalanadi.

Foydalanish uslubi - bironta o'quvchi o'rnidan turib ustoz aytgan yoki yashirin qog'ozda yozilgan so'zni hech qanday tovushlarsiz harakatlar orqali yetkazdirib berish va boshqa o'quvchilar anglagan so'zlarini inglizcha nomini aytishlari kerak. Agar ular o'zbekcha so'zdan foydalansa o'yindan chetlashtiriladi.

Qo'shimcha kurslarga qatnashish-hozirgi kunda juda ham ko'p shaxsiy o'quv markazlar mavjuda va ular asosan ko'p tillarga moslashtirilgan. Ulardan biri ingliz

tili va bu til inson ish yo'li uchun juda zarur. Ko'p o'quvchilar ingliz tili darajasi past ekanidan noliydi va bu tiliga nisbatan nafrati oshadi. Ammo bu holatda ular qo'shimcha darslarga borishni istashmaydi. Albatta bu darslar ingliz tili darajasini oshirish berishga juda katta foyda beradi. Chunki u yerda ular to'rttala bo'limga ham teng va samarali vaqt ajratadi.

Mustaqil o'qish - ko'pgina ingliz tilini o'rganuvchilar uchta sababga ko'ra gapirishda qiynaladilar: ular o'zlarining xorijiy talaffuzidan xijolat bo'lishadi, ular kerak bo'lganda kalit so'zlarni eslay olmaydilar va odamlar ularga javob berganida tushuna olmaydilar, bu esa noqulay vaziyatlarga olib keladi. Ammo buning ham yechimi bor. Iloji boricha ko'proq qo'shiqlar, seriallar, hujjatli filmlar, va suhbatlarga o'zini jalb qilishlari kerak. Bu ularga turli mamlakatlarda ingliz tili qanday jaranglashini va turli odamlar tomonidan qanday gapirishini tushunishga yordam beradi.

Kitoblar- ko'p kitob o'qish inson uchun har tomonlama foyda. Ayniqsa ingliz tilida kitoblar o'qish, bu tildagi muloqot uslubini oshirishga katta yordam beradi. Mening fikrimcha barcha o'qituvchilar o'quvchilari uchun kitobxonlik tadbirini tashkillash kerak va 1 haftada bitta, o'rtacha 150 betlik kitob o'qishlari va uni har haftaning boshida ingliz tilida savol-javob usuli orqali so'rashlari lozim bo'ladi. Natijada o'quvchining yashitingan so'zlashuv qobilyati paydo bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.ef.com/wwen/blog/language/how-to-speak-english-better/>
2. https://www.researchgate.net/publication/346924107_Creating_Full_English_Atmosphere_in_Teaching_English_to_Young_Learners_Teachers'_Perspectives
3. Sh.O.Mamayoqubova. "Pedagogical conditions of professional development of higher Educational establishment teacher" Xalqaro so'z san'ati jurnali. ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. 2022 5 son, 48 p
4. Dunyo tillari haqida qiziqarli faktlar (google ma'lumoti).

<https://cyberleninka.ru/search?q=pantomima.&page=1>